



ISSN 2181-1296

# ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

SCIENTIFIC JOURNAL

2022-yil, 2-son (132) GUMANITAR FANLAR SERIYASI

Filologiya, Pedagogika, Psixologiya

Samarqand viloyat matbuot boshqarmasida ro‘yxatdan o‘tish tartibi 09-25.  
Jurnal 1999-yildan chop qilina boshlagan va OAK ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR  
BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARLARI:

R. I. XALMURADOV, t.f.d., professor  
H.A. XUSHVAQTOV, f-m.f.d., dotsent  
A. M. NASIMOV, t.f.d., professor

## TAHRIRIYAT KENGASHI:

- |                             |  |
|-----------------------------|--|
| <b>S. S. G‘ULOMOV</b>       | - O‘zFA akademigi                                      |
| <b>A. SAGDULLAEV</b>        | - O‘zFA akademigi                                      |
| <b>M. MUXIDDINOV</b>        | - fil.f.d., professor (SamDU)                          |
| <b>B. E. ERGASHEV</b>       | - t.f.d., professor (SamDU)                            |
| <b>B. S. G‘OYIBOV</b>       | - t.f.d., professor (SamDU)                            |
| <b>S. K. KARIMOV</b>        | - fals.f.d., professor (SamDU)                         |
| <b>J. Ya. YAXSHILIKOV</b>   | - fals.f.d., professor (SamDU)                         |
| <b>N. U. ARABOV</b>         | - i.f.d., professor (SamDU)                            |
| <b>Sh. A. HASANOV</b>       | - fil.f.d., professor (SamDU)                          |
| <b>S. A. KARIMOV</b>        | - fil.f.d., professor (SamDU)                          |
| <b>N. Sh. SHODIEV</b>       | - ped.f.d., professor (SamDU)                          |
| <b>M.M. MAXMUDOVA</b>       | - ped.f.d., professor (SamDU)                          |
| <b>NAZIF SHAHRANY</b>       | - Indiana universiteti professori (AQSh)               |
| <b>MUSTAFA UGURLU</b>       | - профессор (Мугла университети, Турция)               |
| <b>N.T.NURULLAXODJAYEVA</b> | - professor (Moskva Davlat universiteti, Rossiya)      |
| <b>TAMIR KLEIN</b>          | - Veysman ilmiy tadqiqot instituti professori (Isroil) |
| <b>HIROAKI HUZIIE</b>       | - Osaka universiteti professori (Yaponiya)             |

## MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS

## FILOLOGIYA/PHILOLOGY

<b>Qarayeva B.X.</b>	O'zbek tilining ikkinchi chet tili sifatida o'qitilishi jarayonida amaliy mashg'ulotlarda fe'l so'z turkumini o'rganish (o'zbek va rus tillari misolida)	4-7
<b>Xaimova F.C.</b>	Использование пословиц и поговорок в художественных произведениях	8-11
<b>Belyakova C.O.</b>	«Особенности презентации концепта «чужой» в произведении Б.Пильняка «Рассказ о том, как создаются рассказы»	12-16
<b>Namazova M.</b>	Amir Xudoyberdi she'riyatida tarix, davr va lirk qahramon	17-22
<b>Rustamova Sh., Yakhshilikova N.</b>	Tarjimashunoslikning nazariy masalalari	23-27
<b>Song Ho-Lim, Husammiddin Tuyg'un</b>	Boburnomaning hozirgi o'zbek va uyg'ur tiliga tarjimasi bo'yicha qiyosiy tadqiqot – sifat va ravish masalasiga e'tibor qaratildi	28-39
<b>Toxirova S.</b>	Russian orientalists and literary critics' contribution in the research of the Tajik literature	40-43
<b>Botirova G.E.</b>	Teaching foreign language for younger pupils with using innovation technologies and internet resources	44-48
<b>Emrah Yilmaz</b>	Maxtumquli Firog'iy devonidagi frazeologizmlarning semantik xususiyatlari	49-54
<b>Tugba Yilmaz</b>	Abdulla Oripov she'rlaridagi tarixiy shaxslar	55-59
<b>Ismatova Y.</b>	Kredit-modul tizimiga asoslangan ta'limdi mustaqil ta'limmni tashkil etishda ilg'or xorijiy tajribalar	60-64
<b>Shamsiddinov B.</b>	Javlon Jovliyevning "Qo'rhma" romanida badiiy xarakter ifodasi	65-68
<b>Rahimov A.A.</b>	Ikkilamchi nominatsiya vositalarining derivatsion mohiyati va ilmiy talqinlari	69-73
<b>Alibekova G.N., Xushiyeva N.T.</b>	Leksik ifoda vositalari va stilistik usullar differensiatsiya muammosi	74-77
<b>Xolibekova K.O.</b>	Presedentlik va intertekstuallik kategoriyasi	78-81
<b>Кадырова З.А., Саттарова С.</b>	Методы правильной организации уроков русского языка в нерусской школе	82-85
<b>Kimsanboyeva B.N.</b>	Kvantitativlikning lingvokulturologik xususiyatlari	86-91
<b>Kadirova F.R.</b>	The need for teaching english reading skills to first year students of higher educations	92-95

## PEDAGOGIKA/PEDAGOGICS

<b>Abdullayeva F.S.</b>	The notion of geographical component of tourism and the methods of teaching students	96-99
-------------------------	--	-------

**Raximov M.**

Yoshlarda xalq o‘yinlari orqali sog‘lom turmush tarzini shakllanirish 100-103

**Elmuradova S.A., Eshbo‘riev R.M., Sayfiev Sh.Sh.**

Oliy ta’limda ta’lim sifatini ta’minlash va nazorat qilish muammolari 104-107

**Pirmatova N.**

Sodirxon Hofiz Bobosharifov hayoti va ijodi 108-112

**Karimqulova F.N.**

Maktabgacha yoshdagi bolalar kreativ tafakkurini shakllanirishda didaktik o‘yinlardan foydalanish 113-117

**Xudoyberdiева A.X.**

Модель формирования творческого мышления учащихся начальных классов 118-124

**Aбдуллаева М.М.**

Методические рекомендации по работе с талантливыми и одаренными учащимися 125-128

**PSIXOLOGIYA / PSYCHOLOGY****Sulaymanova D.K.**

Bolalarni muqobil parvarish qilish muassasalari tarbiyalanuvchilarining ijtimoiy adaptatsiya jarayonidagi muammolar va ularning yechimlari 129-133

**Xalimova M.**

Tadbirkorlik faoliyatida shaxslararo munosabatlarga ta’sir ko’rsatuvchi omillar, mexanizmlar va jihatlarning ijtimoiy-psixologik tahlili 134-137

**Tovbayeva M.S.**

Oiladagi despotizmning motiv va omillarini psixologik xususiyatlari 138-142

**Mualliflarga**

UDK:159.9

**TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA SHAXSLARARO MUNOSABATLARGA TA'SIR  
KO'RSATUVCHI OMILLAR, MEXANIZMLAR VA JIHATLARNING IJTIMOIY-  
PSIXOLOGIK TAHLILI**

*M.Xalimova**Andijon davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada tadbirkorlik faoliyatiga turtki bo'ladigan sabablar qatoriga shaxsning o'zini ko'rsatishga, xalqning moliyaviy resurslaridan bir qismini, qo'shimcha mehnat va boshqa resurslarni xo'jalik jarayoniga jalb qilishga imkon borligi, fuqarolarning qonuniy ravishda o'z daromadlarini oshirishga, qo'shimcha daromad keltiruvchi faoliyat turi bilan astoydil shug'ullanishga imkon beradigan omillar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** tadbirkor, qadr-qimmat poydevori, ma'suliyat, iqtisodiy shart-sharoitlar, samaradorlik, axloqiy komponent.

**Социально-психологический анализ механизмов и факторов, влияющих на  
межличностные отношения в предпринимательской деятельности**

**Аннотация.** Одной из причин предпринимательства является способность человека проявить себя, вовлечь в экономический процесс часть финансовых средств народа, дополнительную рабочую силу и другие ресурсы, законно увеличить свои доходы, заниматься предпринимательской деятельностью. В данной статье обсуждаются виды деятельности, приносящие дополнительный доход.


**Ключевые слова:** предприниматель, ценностная основа, ответственность, экономические условия, эффективность, этическая составляющая.

**Socio-psychological analysis of mechanisms and factors influencing interpersonal relations in  
entrepreneurial activity**

**Abstract.** One of the reasons for entrepreneurship is the ability of a person to prove himself, to involve in the economic process part of the financial resources of the people, additional labor and other resources, to legally increase their income. In this article, activities that bring additional income are discussed.

**Keywords:** entrepreneur, value base, responsibility, economic conditions, efficiency, ethical component.


Tadbirkorlarga jamiyat tamonidan yaratilgan imkoniyatlар cheksiz, ammo ularning bu imkoniyatlarni qabul qilishi va munosabati, o'z faoliyatiga nisbatan shakllangan ma'suliyatini rivojlanganlik darajasini aniqlash dolzarb masaladir. Yangi sosial-iqtisodiy shart-sharoitlarga moslashish har bir shaxsdan ma'suliyatni talab etadi. Sababi, jamiyatning aksariyat qismida beqarorlik mavjud bo'lib, buni kishilar o'rtasidagi munosabatlар tizimi vaziyatga oid qarorlar asosida boshqariladi. Bu, ayniqsa, iqtisodiy munosabatlarda, tadbirkorlik faoliyatining o'zaro munosabatlari sohasida o'z aksini topadi. Jamiyatning ma'nnaviy, qadr-qimmati poydevorini sinovdan o'tkazadigan nisbiy beqaror sosial-iqtisodiy shart-sharoitlar munosabatlarni tartibga solishning muhim axloqiy komponenti sifatida mas'uliyatni o'rganishning ahamiyatini yanada oshiradi. Tadqiqot ishning dastlabki bosqichida, biz tadbirkorlarning shaxsiy kompetensiyalarini tekshirish uchun sinaluvchilarga mualliflik ishlanmamiz sanalgan "Tadbirkorlik faoliyatida shaxslararo munosabatlarga ta'sir ko'rsatuvchi determinant (omil, mexanizm, jihat)larni tadqiq etish va tadbirkor mas'uliyati samaradorligini aniqlash so'rovnomasi?" bilan murojaat qildik.



### 3.1-rasm. Respondentlarning millati bo'yicha ma'lumot (n=418)

Sinaluvchilarining millati bo'yicha tahlillarga ko'ra, 275 nafar o'zbek, 42 nafar tojik, 25 nafar qirg'iz, 18 nafar rus, 16 nafar uyg'ur, 12 nafar tatar, 9 nafar koreys va 21 nafar boshqa millat vakillari IPSga jalg qilingan (3.1-rasmga qarang).


Andijon, Farg'ona va Namangan viloyatlarda MChJ rahbari sifatida faoliyat olib borayotgan 250 nafar hamda Andijon viloyatidagi o'zini o'zi band qilish bilan mashg'ul bo'lgan 168 nafar tadbirkorlar ishtirok etishdi.



### 3.2-rasm. Respondentlarning jinsi bo'yicha ma'lumot (n=418)


IPSDa ishtirok etgan sinaluvchilarning 246 nafari erkak tadbirkor, 172 nafari ayol tadbirkor sanaladi (3.2-rasmga qarang). Ulardan, 275 nafari Andijon viloyatidan, 80 nafari Farg'ona viloyatidan va yana 63 nafari Namangan viloyatidan.

Jamiyatda egallagan iqtisodiy mavqyeiga ko'ra, ishtirokchilarning 118 nafari (Andijondan 71 nafar; Farg'onadan 22 nafar; Namangandan 25 nafar) o'zini yuqori segment vakili (badavlat shaxs) hisoblasa, 294 nafar (mos ravishda 198; 58; 38) i esa o'rta segment (o'rta hol oila) vakili deb bilishadi. Shuningdek, o'zini o'zi band qilish yo'li bilan tadbirkorlikni boshlagan 2 nafar Andijonlik respondent o'zini quyi segment ("Ayollar daftari") vakili sifatida e'tirof etgan (3.3-rasmga qarang).



### 3.3-rasm. Respondentlarning iqtisodiy mavqyei bo'yichama'lumot (n=418)


Respondentlarning 137 nafari (Andijondan 118 nafar; Farg'onadan 14 nafar; Namangandan 5 nafar) umumiyl o'rta ma'lumot sohib(as)i sanalsa, 139 nafar (mos ravishda 108;18;13) i esa o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi bitiruvchisi ekan. Shuningdek, sinaluvchilarning 142 nafar (mos ravishda 49;48;45) i oliy ma'lumot egalari hisoblashinlar ekan (3.4-rasmga qarang). Bu yerda asosan oliy ma'lumot sohib(as)i bo'lgan respondentlar MChJ da rahbarlik qilayotgan tadbirkorlardir. Umumiy o'rta ma'lumot egalari orasidagi ustuvorlikni o'zini o'zi band qilganlar orasida kuzatish mumkin.



### 3.4-rasm. Respondentlarning ma'lumoti bo'yicha ko'rsatkichlari (n=418)

IPS da qatnashgan respondentlarimiz orasidan 62,9 foizi (Andijondan 183 nafar; Farg'onadan 42 nafar; Namangandan 38 nafar) 10 yildan oshiq tadbirkorlik stajiga ega. 28,7 foizi (mos ravishda 75; 28; 17 nafar) esa 5 yildan 10 yilgacha bo'lgan muddat oralig'ida tadbirkorlik faoliyatini yuritib kelishayotganligi e'tirof etishgan. 6,5 foizi (mos ravishda 12; 8; 7 nafar) 1 yildan 5 yilgacha bo'lgan muddat ichida tadbirkorlik faoliyatini boshlashgan. 1,9 foiz sinaluvchi (mos ravishda 5; 2; 1 nafar) yaqin bir yil ichida tadbirkorlik faoliyatida omadini sinab ko'rayotganligi ma'lum bo'ldi (3.5-rasmga

qarang). Shuningdek, sinaluvchilarning 59,8 foizi (250 nafar) MChJ da rahbarlik qilayotgan tadbirkorlar bo'lishsa, 40,2 foizi (168 nafar) o'zini o'zi band qilganlar hisoblanadi.



### 3.5-rasm. Respondentlarning tadbirkorlik stagi bo'yicha ma'lumoti (n=418)

IPS dagi “Nega siz ayni vaqtida tadbirkorlik va (yoki) o'zini o'zi band qilish faoliyati bilan shug'ullanishni yo'lda qo'ydingiz?” – degan savolga: 71,53 foiz sinaluvchi o'z javoblarida jamiyatning bozor iqtisodiyotiga bosqichma bosqich o'tish hisobiga oldingi ish joylarini yo'qtgach va (yoki) davlat sektorida ish o'rinxarini qisqarishi hamda ish o'rni yetishmasligidan kelib chiqqan moliyaviy muammolarga barham berish maqsadida “moddiy manfaatdorlik”ni; 67,94 foizi – “shaxsiy salohiyatimni oshirish va (yoki) kasbiy faoliyatni yangilash zarurati”ni; 65,79 foiz sinaluvchi “imkoniyatlarimni va (yoki) o'zimni ro'yobga chiqarish hamda atrofdagilarga tan olinish ehtiyoji”ni; 61,72 foizi “hududda va (yoki) yoshlar, xotin-qizlarga yaratilgan komfort sharoitlar”ni va yana shuncha respondent “amalga oshirayotgan faoliyat turining atrofdagilarga foyda keltirishi va vatan ravnaqiga qo'shadigan ulushi”ni; 47,61 foizi – “mustaqillikka intilish va (yoki) ko'proq o'z vaqtiga ega bo'lish imkoniyati”ni; 46,41 foiz respondent “mas'uliyatli jamoada va (yoki) obro'li shaxslar bilan ishlash imkoniyati”ni; 23,68 foizi – “referent guruh tavsiyasi”ni; 18,42 foizi – “vaziyat taqazosizi”ga ko'ra tadbirkorlik faoliyatini boshlashganligini sabab sifatida qayd etishgan holda javob berishgan bo'lsa, yana 16,51 foizi o'z variantlarini bayon qilishgan.

Xususan, yosh-tadbirkordagi tezkor o'zlashtirish kompetensiyasi va innovasion kompetentlik o'zini o'zi band qilish sohasidagi tadbirkorlik ko'rinishlari bilan bog'liq muammolarni hal qilishda nostandard yondashuvlarni qo'llash amaliyotini rivojlantiradi.

### Adabiyotlar

1. Abduraxmonova М.М. О'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni takomillashtirish. - Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2014. – 196 b.
2. Бардиер, Г.Л. Бизнес-психология / Г.Л. Бардиер. - Москва: Генезис, 2002. – 412 с.
3. Блауг М.100 великих экономистов до Кейнса (Great Economists before Keynes: An introduction to the lives & works of one hundred great economists of the past). - СПб.: Экономикс, 2008. – 352 с.
4. Донцов А.И., Емельянова Т.П. Концепция социальных представлений в современной французской психологии / А.И. Донцов, Т.П. Емельянова. - Москва: Изд-во МГУ, 1987. – 128 с.
5. Q.X. Abdurahmonov Inson taraqqiyoti. Darslik.-Toshkent: Iqtisodiyot, 2013. – 542 b.